



MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC
SOLUTIONS

**1-SINF O‘QUVCHILARI (7-8 YOSHLI) BOLALARNING
PSIXOLOGIK HOLATI, QIZIQUVCHANLIGI VA ULARNING
TASAVVURLARINI RIVOJLANTIRISH IMKONIYATLARI.**

Fayziyeva Gulhayo Erkin qizi

Shahrisabz davlat pedagogika instituti magistri

Annotatsiya: Mazkur maqolada, o‘simliklar va insonning hamkorlikda mavjudligi haqidagi bilimlar yordamida o‘quvchilarning tasavvurlari va ijodiy fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirish imkoniyatlari o‘rganilgan. . Maqolada o‘quvchilarning tasavvurlari va ijodiy fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirish vositasi “O‘simliklar va inson” intellekt xaritasi keltirilgan. Ta’limning dastlabki bosqichlarida yosh o‘quvchilarda ijodiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish juda muhimligi hamda ushbu ko‘nikmalar ularning kognitiv qobiliyatlarini oshirishi va tanqidiy fikrlash, muammolarni hal qila olish qobiliyatlarini o‘stirishga qaratilgan.

Kalit so‘zlar. *Tabiiy fanlar, tasavvur, qobiliyat, o‘simliklar, atmosfera, fotosintez, ijodiy fikrlash, bilish jarayoni, intellekt xarita (mind map), sezgi kanallari, visual ko‘rinish.*

Kirish. Umumta’lim maktablarining 1-sinf o‘quvchilariga “Tabiiy fanlar” (SCIENCE) fani “O‘SIMLIKLAR BOBI”ning “O‘simliklarning yashashi uchun nimalar zarur?”, “O‘simliklarning rivojlanishi” va “O‘simliklarning xilma-xilligi” mavzularini o‘qitishda o‘quvchilarning tasavvurlari va “ijodiy fikrlash” ko‘nikmalarini rivojlantirish metodlarini takomillashtirish va o‘zlashtirish, amaliyotda qo‘llay olish qobiliyatlari shakllanishi uchun kerakli chora-tadbirlar ko‘rinib, asosiy vazifa sifatida qaralyapti.

Tabiat va insonning uyg‘unligi jamiyat rivojlanishida muhim ahamiyatga ega. Biologik va ijtimoiy omillar bolalarning intellektual rivojlanishida muhim ahamiyatga ega. Ular asosida o‘quvchilarda atrofda olam haqida ilk tasavvurlar shakllanadi. Bolalar olgan bilimlarini mustaqil ravishda amalda qo‘llash ko‘nikmalariga ega bo‘ladilar. Bolaning atrofda olamdan olgan ma’lumotlari asosida shaxsiy tasavvurlari shakllanadi [14].

Bevosita tajriba o‘tkazish bilan bolalarning qiziquvchanligini orttirish, mustaqil fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirish mumkin. Ularning tabiatda ro‘y beradigan jarayonlar haqidagi tasavvurlari kengayadi va mustahkamlanadi. Bunda bolalarni tajribalarni mustaqil bajarishga undash lozim. Bunda bola kuzatuvchan tadqiqotchiga aylanadi.

Bolalarning atrof-muhitga do‘stona munosabatda bo‘lishi ularda ekologik madaniyatni shakllanishida yordam beradi.

O‘quvchilarga “ijodiy fikrlash”ni o‘rgatish uchun esa ularning tasavvurlarini rivojlantirish lozim. Hech qanday ijodiy mahsulot tasavvursiz bo‘lmaydi [3]. Tasavvur ijod natijasini oldindan tasavvur qilish imkonini beradi. U obrazlar (timsollar) bilan ish





MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS

ko'radi. U obrazlarni o'zgartirish bilan yangi, oldin mavjud bo'lmagan ijodiy mahsulotni tug'ilishini ta'minlaydi. "Oldin ma'lum bo'lmagan narsa to'g'risida o'ylash uchun kuchli tasavvurga ega bo'lish kerak" – degan edi P.Feynman [12]. Tasavvur qilish uchun miyaga ma'lumotlarni idrok beradi. Idrok tashqi olamdan ma'lumotlarni qabul qilib, miyada tahlil qilish jarayoni. Atrofdagi ro'y beradigan real voqealar haqida **sensor kanallari** yordamida olinadigan ma'lumotlarning tahliliga bevosita **idrok** deyiladi. Verbal, visual yoki boshqa shakldagi ma'lumotlar asosida qabul qilinadigan idrokka **bilvosita idrok** deyiladi. Ta'lim jarayonida o'quvchilarning ijodiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirish muammolari xorijiy mamlakatlar olimlari tomonidan ko'p vaqtlardan buyon o'rganib kelingan, lekin ular o'z ilmiy-tadqiqot ishlarida atrofimizdagi olamni o'rganish jarayonida o'quvchilarning tasavvur va ijodiy fikrlashini rivojlantirishda intellekt xaritadan foydalanish imkoniyatlarini o'rganmaganlar [3].

O'quvchilarga "ijodiy fikrlash"ni o'rgatish ularning tasavvurlarini rivojlantirishdan boshlanadi. "Tasavvur" inson ruhiyatining idrok, fikrlash va xotiralari o'rtasidagi holatida bo'lgan, boshqa ruhiy jarayonlardan farq qiladigan maxsus ko'rinishidir.

Tasavvur ko'rgazmali-obrazli fikrlashning asosi bo'lib, amaliy faoliyatsiz ham muammoni yechishga imkon beradi. U voqelikni kutilmagan yangi obrazlar orqali aks ettirishdir. Tasavvur ijod natijasida oldindan tasavvur qilish va biror ko'rinishda (verbal yoki vizual) tasvirlashga imkon beradi. Ya'ni, ijodiy mahsulotning vujudga kelishini ta'minlaydi. Tasavvur inson miyasining eng takomil kompyuterga o'xshashligini isbotlaydi. Bu kompyuterda genlar orqali o'tgan ko'plab ma'lumotlar bo'lib, atrofdagi olamdan olinadigan ma'lumotlar ularni uyg'otadi va ular ko'z o'ngimizdan o'tadi. Endi ularni faqat o'zgalar ham bila oladigan shaklda tasvirlash lozim bo'ladi. Tashqi ta'sir qancha kuchli bo'lsa, "kompyuter miyaning" unga reaksiyasi ham shunchalik kuchli bo'ladi. Eynshteynning fikricha, tasavvur bilimdan muhimroq. Bilim cheklangan, "tasavvur" esa butun olamni qamrab oladi, rivojlanishni vujudga keltiradi. O'quvchida tasavvurni rivojlantirish uchun uni o'ylatadigan, mulohaza yuritishga undaydigan muhitni vujudga keltirish lozim [17].

"Ijodiy fikrlash"ni yaxshilash uchun tasavvurdagi suratlarni chizish, ta'sirli musiqa eshitish, taassurotni bayon qilish, sayohat qilib ko'rganlarini hikoya qilish yaxshi natija beradi.

Tasavvurni rivojlantirishda fantaziyaning roli katta. Fantaziya tasavvurning eng yuqori darajada rivojlanganini ko'rsatadi. Shuningdek, tasavvurni rivojlantirish uchun ko'zni yumib, xayol surish va ularni bayon qilish yoki suratini chizish yaxshi natija beradi.

Shuningdek, tasavvur qilish uchun **sensor kanallaridan** foydalanish ham yaxshi natija beradi.

Ko'rish – biror narsaga nigoh tashlang. O'ziga xos jihatlariga e'tibor bering. Bu jihatni bo'rttirib bayon qiling. Rasmini chizing.





MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS

Eshitish – sho‘x yoki mungli musiqa yoki biror tovushni eshiting. Bu tovush qalbingizda qanday tuyg‘ular uyg‘otganini ayting. Taassurotingizni ayting. Tovush qayerdan kelayotganini chizing.

Hid bilish – hid tasavvurni jonlantirish xususiyatiga ega. Bunga sabab hid bilish signallarining miyaning emotsiyani uyg‘otadigan qismida analiz qilinishidir. Xonada tarqalayotgan hid uyg‘otgan hissiyotingizni ayting va hid manbaini chizing.

Ta‘m bilish – og‘zingizdagi konfetning mazasini aniqlang. Unda nimalar bor? Manbalarini tasavvur qiling. Rasmini chizing.

Tuyish – ko‘zingizni yumib, barmog‘ingizni ikkinchi qo‘lingiz ustida yurgizing. Nimalarni tuyayotganingizni aytib bering.

Doimo yangilanib borayotgan olamda muvaffaqiyatlarga erishish uchun o‘quvchilar qanday ko‘nikmalarga ega bo‘lishlari kerak? Bu ko‘nikmalar qanday shakllantiriladi?!

Yangi asr ta‘limi bolalarga butun umr davomida o‘qish, o‘rganish va o‘zgaruvchan dunyoda o‘zlarining munosib o‘rinlarini egallash, ilg‘or fikrlar bilan uni o‘zgartirishga o‘z hissalarini qo‘sha olish ko‘nikmalariga ega qilib tarbiyalashi lozim.

Odatda, bolalik davrida kuchli taassurot qoldirgan narsa yoki voqea shaxsda shu narsaga doimiy qiziqish paydo qiladi.

Bolalarning tasavvurlari kuchli bo‘ladi. Chunki, ularning miyalarida hali izlar bo‘lmay, kuzatish, yangi obrazlarni o‘ylab topish ishtiyoqi yuqori bo‘ladi.

O‘quvchilarning ta‘lim olishlariga intilish kelgusidagi orzu-umidlari bilan bog‘lanishi yaxshi motivatsiya bo‘ladi. Bu o‘ziga xos ichki-umid motivatsiyasidir. Bolalarni porloq kelajakka umid qildirish kerak. Umid va orzu insonni eng katta ilhomlantiruvchi, muvaffaqiyatlarga boshlovchi kuchdir.

Inson faoliyatida tasavvur bir qancha vazifalarni bajaradi. Ularning birinchisi, voqelikni obrazlar orqali tasavvur qilishdir. Insonning bu xususiyati fikrlashga aloqador. Ikkinchisi, bolaning emotsional holatini boshqaradi. Bu holat bilish, fikrlash jarayoni uchun o‘ta muhim. Chunki, emotsiya bilan idrok qilingan ma‘lumotlar kuchli taassurot qoldirib, xotirada juda uzoq saqlanadi. Bundan tashqari, tasavvur bilish jarayoniga, xususan, idrok, xotira, emotsiyaga bevosita aloqador. Bundan tashqari tasavvur bolaning kelgusidagi rejalariga bevosita ta‘sir qiladi [17].

Ijod bevosita fantaziya bilan bog‘liq. Fantaziya esa reallikdan juda ham uzoqda bo‘lmaydi. Atrofimizdagi olamda mavjud narsalar va ro‘y beradigan jarayonlar fantaziyaga bevosita ta‘sir qiladi. Tasavvur individning psixologik holatini ko‘rsatadi. Shu nuqtai nazardan, “O‘simliklarning xilma-xilligi” mavzusini o‘qitish jarayonida atrofdagi olamdan idrok qilinadigan ma‘lumotlar qanchalik yaxshi idrok qilinsa, u shunchalik yorqin tasavvur uyg‘otadi. Bu esa o‘z navbatida o‘quvchilarning “ijodiy fikrlash” ko‘nikmalarining rivojlanishiga ijobiy ta‘sir ko‘rsatadi. Demak, bolalarning “ijodiy fikrlash” ko‘nikmalarini rivojlantirish uchun tasavvur muhim ahamiyatga ega ekan.

Xulosa





MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS

- Boshlang'ich sinf o'quvchilari fikrlash nuqtai-nazaridan katta potentsialga ega va o'simliklar mavzularini o'tishda bu imkoniyatdan foydalanish mumkin.
- O'simliklar atrof-muhit uchun muhim ahamiyatga ega bo'lib, ular bilan tanishish o'quvchilarning nafaqat tasavvurlarini rivojlantiribgina qolmay, tabiatga bo'lgan qiziqishini ham orttiradi.
- "Sezgi kanallari" intellekt xaritasi o'quvchilarni atrof-dagi olamdan olinadigan ma'lumotlarning idrok qilinish mexanizmi bilan tanishtiradi.
- "Sezgi kanallari" intellekt xaritasi o'quvchilarning "ijodiy fikrlash" ko'nikmalarini rivojlantirishning sarmahsul vositasi bo'ladi.
- O'simliklarning xilma-xilligi mavzusi o'quvchilarda ularning ko'rinishi, rivojlanishi haqidagi tasavvurlarining rivojlanishiga imkon beradi.
- Bu mavzu o'quvchilarda ona tabiatga bo'lgan qiziqishlarini, ekologik bilimlarining ortishiga va har bir o'simlik haqida aniq tasavvurga ega bo'lishlariga yordam beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. [1]Schleicher Adreas The economics of knowledge; Why Education is key for enrope's succobs//Polcy brief. The Lisson Council. 2000. (пер. с англ. Е.Пока. movir)
2. [2] PISA 2022: Insights and Interpretations. <https://uzedu.uz>news.05.12.2023>
3. Выготский Л.С. Воображение и творчество в детском возрасте. 1997 г.
4. Рубинштейн С.А. Основы общей психологии. СПб. – Питер, 2013 г.
5. Беспалько В.П. Педагогика и прогрессивные технологии обучения. – России, 1995 г.
6. Боно де Эдвард. Серьёзное творческое мышление. – Минск ООО Попурри, 2015 г.
7. Дьюи Дж. Психология и педагогика мышления.– М., Мир, 1999 г.
8. Зденек М. Развитие правого полушария. Издательство Попурри, 2004 г.
9. Немов.С. "Психология" книга 3. Москва Владос 2005г. Стр260.
10. А.О.Бударина и др. Особенности проф.подгот.педагогов: вест БФУ. 2022 №1. Стр. 104-114.
11. A.G'aniyev, M.Yaxiyaxonova _____
12. Эльконин Д. Б. Избранные психологические труды/В.В. Давыдов, В. П. Зинченко. – М., Педагогика, 1989 г.
13. Торренс Е., Туник Е.Е.Диагностика креативности тест. – Санк-Петербург, 1998 г.
14. Зденек М. Развитие правого полушария. Издательство Попурри, 2004 г.
15. Немов.С. "Психология" книга 3. Москва Владос 2005г. Стр260.
16. Немов.С. "Психология" книга 1. Москва Владос. Стр 266.

